

MUTTASIL VA MUNFASIL HARFLARNING QO‘LLANISH O‘RNI

Umarova Muxlisaxon Erkinjon qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar
fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

Muratova Nafisa Baxtiyarovna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ma‘lumki, eski o‘zbek yozuvida harflar so‘zning qaysi o‘rnida kelishiga ko‘ra to‘rt xil ko‘rinishda yoziladi (muttasil harflar). Quyida Muttasil harflarning to‘rt xil ko‘rinishi, munfasil harflarning ikki xil ko‘rinishi so‘zning qaysi o‘rnida qay holatda kelishini tahlil qilamiz.*

Kalit so‘zlar: *Muttasil harflar, munfasil harflar, konsonant, arabcha harflar, arablarga xos tovushlar.*

Abstract: *It is known that in the old Uzbek script, letters are written in four different ways depending on the position of the word (continuous letters). Below we will analyze the four different forms of Muttasil letters and the two different forms of Munfasil letters in which position of the word.*

Key words: *Muttasil letters, munfasil letters, consonant, Arabic letters, Arabic sounds.*

Аннотация: *Известно, что в старом узбекском письме буквы пишутся четырьмя различными способами в зависимости от положения слова (сплошные буквы). Ниже мы проанализируем четыре различные формы букв муттасиль и две разные формы букв мунфасиль, в которых находится слово.*

Ключевые слова: *буквы муттасиль, буквы мунфасиль, согласная, арабские буквы, арабские звуки.*

Tarixda arab yozuvi deb nom olgan, asrlar davomida eroniy hamda turkiy xalqlarning madaniy hayotida katta o‘rin tutib kelgan arab yozuvi arablarga islom dini qabul qilinishidan oldinroq nobotiy qabilalardan o‘tgan, nobotiylik uni oromiylardan, oromiylar esa finikiyaliklardan o‘zlashtirib olgan edilar. Nobotiylik ham, oromiylar ham arablar singari somiy tillariga mansub xalqlar bo‘lgani sababli ularning 22 harfli konsonant(undoshni ifodalovchi) yozuvi arab tiliga mos tushavergan. Keyinroq esa, islom dinining yoyilishi oldidan arablar yozuvga arab tilining o‘ziga xos tovushlarini bildiruvchi 6ta harf qo‘shadilar. O‘rta Osiyo xalqlari arab yozuvini qabul qilgan vaqtda bu yozuvda 28ta harf mavjud bo‘lib, harflarning katta bir qismi(ح ذ ص ض ط ظ ع harflari) arab tilining maxsus tovushlarini ifodalashga xizmat qilar, mahalliy xalqlar u tovushlarni aynan talaffuz qila olmas, mazkur harflar faqat arabcha so‘zlar tarkibidagina ishlatilar edi. Arablarning 28 harfli yozuvi bilan mahalliy xalqlar arabcha matnlarni o‘qib chiqarishga odatlangan bo‘lsalar

ham, o'z tillarida fikr ifodalashga qiynaladilar. Bu holat yozuvga yana ba'zi qo'shimchalar kiritishga (گ ژ چ پ) majbur etadi. Shunday qilib 32 harfli yozuv shakllanadi. Arab alifbosi 28 harfdan iborat bo'lib, turkiy va eroniy xalqlar o'z maxsus tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha quyidagi 4harfni kiritdilar: p, ch, j, g.



Bu harflarni hosil qilishda ularga hosil bo'lishiga ko'ra yaqin bo'lgan harflar asos qilib olindi va ularga ikkitadan nuqta orttirish orqali yangi harflar kashf qilindi. Shunday qilib, arab-fors alifbosidagi harflar soni 32 taga yetdi. Alifbodagi harflar o'zlarining yozuvdagi xususiyatlariga ko'ra bir tomonlama qo'shiluvchi harflar va ikki tomonlama qo'shiluvchi harflarga bo'linadi. Bir tomonlama qo'shiluvchi harflarning bog'langan va bog'lanmagan shakllari mavjud bo'lganligi sababli ular yozuvda ikki ko'rinishda bo'ladi. Joriy lotin yozuvidagi kabi eski o'zbek yozuvida ham harflar o'zaro bir-biri bilan qo'shib yoziladi. Biroq bu xususiyat barcha harflarda ham kuzatilmaydi. Alifbodagi harflar o'zidan oldingi harf bilan qo'shilish yoki qo'shila olmasligiga ko'ra farqlanadi va quyidagicha tasniflanadi.

- munfasil harflar
- muttasil harflar

Munfasil harflar(bir tomondan qo'shiluvchi harflar) o'zidan oldingi muttasil harf bilan har doim qo'shib yoziladi. Ammo o'zidan keyingi barcha harflarga umuman qo'shilmaydi. Shuning uchun yozuvda uning ikki xil ko'rinishi mavjud. Shunga muvofiq ravishda ularning yozuvdagi ko'rinishlari alohida va bog'langan deb ataladi. Arab-o'zbek alifbosidagi munfasil harflar 7 ta va ular quyidagilar:

ا د ذ ر ز و ژ

Munfasil harflarning xususiyatlari: so'z tarkibida kelgan munfasil harf o'zidan keyin kelgan barcha harflar bilan umuman qo'shilmaydi. Misol qilib tarnov so'zini eski o'zbek yozuvida yozilishini ko'rsatishimiz mumkin. تارنوا - tarnov

So'z tarkibida kelgan munfasil harf faqat o'zidan oldin kelgan muttasil harflar bilangina qo'shib yoziladi.

Misol: ضرر – zarar , رضا - rizo , سوو – suv , کتاب – kitob

So'z tarkibi faqat munfasil harflardan iborat bo'lsa, ularning barchasi alohida shaklda yoziladi.

Misol: وزرا – vuzaro , ازار – ozor , زور – zo'r , درد – dard

Muttasil harflar(ikki tomonlama qo'shiluvchi harflar) so'zning qaysi o'rnida kelishiga ko'ra turlicha ko'rinishga ega bo'ladi: so'zning boshida kelsa – bir, orasida kelsa – ikkinchi, so'z oxirida kelsa – uchinchi, hammasi bo'lib, alohida shakli bilan birga, to'rt ko'rinishga ega.

Arab-o'zbek alifbosidagi muttasil harflar soni 25ta.

Muttasil harflar har doim o'zidan keyin kelgan harflarga(muttasil yoki munfasil harfligidan qat'i nazar) qo'shib yoziladi. Ammo o'zidan oldin kelgan munfasil harflarga qo'shila olmaydi.

Misol: cho'p – چوپ , hazrat – حضرت , hayrat – حيرت .

Alohida ko'rinish – so'zning oxirida kelib, undan oldingi harf munfasil harf bo'lsa qo'llanadi.

Misol: oftob – افتاب , Bobur – بابر , rivoj – رواج , toj – تاج .

Ko'pincha so'z o'zagiga qo'shimcha qo'shilganda o'zakning oxiridagi harf oxirgi ko'rinishi yoki munfasildan keyin kelsa alohida ko'rinishda yoziladi, undan keyin qo'shimcha so'z boshidagi ko'rinish bilan yoziladi.

Misol: mehnatning - ميحناتنينگ - ميحنات نينگ

So'z boshidagi ko'rinish – bu ko'rinish ko'pincha so'z boshida keladi.

Misol: sinf – سينف , tish – تيش , ilik – ايليك , baxt – بخت

So'zning o'rtasida munfasil harf kelsa, undan keyin ham so'z boshidagi ko'rinish yozilib so'z davom ettiriladi.

Misol: Azizga – ازيزگا , kunduz – كوندوز , chunki - چونكي , posbon – پاسبان .

So'z o'rtasidagi ko'rinish – so'z o'rtasida muttasil harflar o'rtasida kelsa, o'zi ham muttasil harf bo'lsa so'z o'rtasidagi ko'rinish qo'llanadi.

Misol: maktab – مکتب , g'azab – غضب , ta'lim – تعليم , tanbal – تنبل .

So'z oxiridagi ko'rinish – bu ko'rinish so'zning oxirida keladi.

Misol: maktub – مکتوب , shiddat – شدت , ziyo – ضيا , shaxs – شخص .

So'zning negizi qo'shimchaga bog'lanmagan holatda negiz oxirida so'z oxiridagi ko'rinish keladi.

Misol: menga - مين گا , sabrli - سبرلي , e'tiborsiz – ايعتبارسيز , sirdosh – سرداش .

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, muttasil harflardagi to'rt xil ko'rinish, ya'ni so'z boshi, so'z o'rtasi, so'z oxiri va alohida ko'rinish har doim ham boshi, o'rtasi va oxiridagi holatlarda kelmasligi mumkin. Ya'ni misol qilib so'z boshidagi ko'rinishni oladigan bo'lsak, bu ko'rinish har doim so'z boshida kelmaydi, balki so'z o'rtasida o'zidan oldingi harf munfasil bo'lsa ham so'z boshidagi ko'rinish ishlatilishi mumkin, bundan tashqari so'zga qo'shimcha qo'shilganda ham so'z tarkibidagi qo'shimcha bosh harf bilan yoziladi. So'z oxiridagi ko'rinish ham shunday mustasno holatga ega, ya'niki so'z oxiridagi ko'rinish har doim ham so'z oxirida kelmay so'z o'rtasida kelish holatlari mavjud, qachonki so'z tarkibiga qo'shimcha qo'shilganda, qo'shimcha qo'shilish hisobiga undan oldingi harf xoh muttasil, xoh munfasil bo'lsin, qo'shimchadan oldingi harf so'z oxiridagi ko'rinishda yoziladi. Bundan tashqari so'z o'rtasidagi ko'rinish ham shunday holatga ega, ya'ni so'z o'rtasidagi ko'rinish faqatgina ikki tomondan ulangan holatda yozilmasdan, bir tomondan ulangan holatda ham yozilish ehtimoli mavjud, ya'ni ikki tomondan keladigan harflar muttasil bo'lsa bunday holatda ikkala tomonga ham qo'shilib yoziladi, agarda so'z o'rtasida munfasil harf keladigan bo'lsa, undan keyin ham so'z boshidagi ko'rinish yozilib so'z davom ettirilaveradi. Shu kabi xususiyatlari bilan ham arab yozuvi boshqa yozuvlardan ajralib turadi. Ya'ni bunday holatlar boshqa ko'plab yozuvlarda mavjud emas. Xususan, o'zimiz foydalanadigan lotin yozuvini bunga misol qilib keltirimishiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Ashirboyev, I.Azimov, M.Rahmatov, A.Goziyev Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. –T . : Ijod uyi, 2006-y.
2. L.Xalilov O'qish kitobi. –T. : O'qituvchi, 1998-y.
3. R.Jumaniyozov Eski o'zbek yozuvi. –T. : O'qituvchi, 1980-y.
4. I.Azimov, M.Tojiboyeva, A.G'oziyev Eski o'zbek yozuvi. –T. : Innovatsiya nashriyoti, 2021-y.
5. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
6. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
7. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
8. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
10. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
11. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
12. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
13. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
14. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.
15. Nosirxonzoda, A. N. (2023). HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI-YOSHLAR UMUMIY TARBIYASINING TARKIBIY BIR QISMIDIR. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 1-5.